

XORIJIY TILLARNI O`RGATISHNING AHAMIYATI VA FOYDALANILADIGAN METODLAR

Alimardonova Fotima Alimardonovna

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs talabasi

Sattarova Dilrabo Ikrambayevna

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: *Hozirgi kunda xorijiy tilni bilish, o`rganish davr talabiga aylanib bormoqda. Bunga sabab insonlar turli xil sohalarda (masalan, ta`lim, biznes, tibbiyot va yana bir qator yo`nalishlar) xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashish maqsadida, ular bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish uchun ham kamida ikki yoki uchta chet tilini o`rganishmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda hattoki bog`cha yoshidagi bolalarga ham chet tillari o`rgatilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari ham bir qator qulayliklar va imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ushbu maqolada o`quvchilarga xorijiy tillarni o`rgatishda qo`llaniladigan samarali metodlar haqida va chet tilini o`rganish uchun yurtimizda yaratilgan qulayliklar haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *maqsadli til, o`qitish metodikasi, axborot texnologiyalari, bumerang texnologiyasi, kommunikativ metod, audio-lingual metod*

Kimgadir biror nimani o`rgatish ancha murakkab jarayon, albatta. Ayniqsa, umuman notanish bo`lgan narsa haqida ma`lumot ulashish, bilim berish. Xorijiy tilni o`rgatish ham shunday murakkab jarayon aslida. Ammo hozirgi davr talabi ham shu ya`ni inson ulkan muvaffaqiyatlarga erishishi uchun ham yoki yangi bilim va ko`nikmalar hosil qilishi uchun ham xorijiy til o`rganishi zarur bo`lmoqda. Aslida ``xorijiy til`` o`rniga ``maqsadli til`` iborasini qo`llash maqsadga muvofiq bo`ladi. Bundan yoshlarga chet tillarini o`rgatishdan qo`yilgan maqsadlar talaygina ekanligini ham anglash mumkin. Ammo dunyo ancha vaqtdan beri xorijiy tillar hamda ularning o`rganilish uslublari haqida bilgan bo`lsada, bizning yurtimizda chet tilini o`rganish, uning o`qitish metodikalari borasidagi inqilob 20-asr oxiri 21-asr boshlarida sodir bo`ldi. Shundan so`ng insonlarning, jamiyatning maqsadlari o`zgardi. Va bugungi kunda deyarli hamma chet tillarini o`rganmoqda. Xorijiy tillarni o`rgatishda turli xil interaktiv metodlardan foydalanishimiz mumkin. Bu borada axborot texnologiyalarining ham foydali tomonlari talaygina. Hozir Internet, texnologiya rivojlangan davrida yashayapmiz. Shunday ekan chet tillarini onlayn ravishda ham o`rganish mumkin. Misol qilib aytadigan bo`lsak, oddiy televizor ham bolaga chet tilini o`rgatishda qanchadur miqdorda yordam beradi. Ular televizorda boshqa ya`ni xorijiy tildagi multfilm yoki kino ko`rish orqali ham o`zlari sezmaganda holda yangi so`zlar o`rganishi mumkin. Chunki bolalarda xotira mustahkam bo`lganligi sababli ular ko`rgan, eshitgan narsalarini tezda yodlab olish xususiyatiga ega bo`lishadi. Yoki oddiy musiqa tinglash ham misol bo`la oladi.

Talaba va maktab o`quvchilariga xorijiy tillarni o`rgatishda samaradorlikni oshirish maqsadida o`qituvchilar turli xil interaktiv o`yinlar va metodlardan foydalanishadi. Bu esa o`quvchining xotirasida yangi ma`lumotning tezda saqlanib qolishini ta`minlaydi. Hattoki, hozirgi kunda bog`cha tarbiyalanuvchilariga ham xorijiy til o`rgatilmoqda. Ta`lim metodlari ko`p albatta. O`qituvchi o`quv axborotlarini mustahkamlashga, o`quvchilarning tushunib yetishi uchun xizmat qiladigan, ularni o`rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlashga majbur qiladigan usullardan foydalanishi kerak. Bunga misol tariqasida darsda qo`llaniladigan ``**Bumerang**`` texnologiyasi haqida to`xtaladigan bo`lsak, bu o`quvchilarni fikrlashga, o`quvchilarda mantiqni rivojlantirishga, shakllantirishga moslashtirilgan. Va shu bilan birga ularning xotirasini, fikr va g`oyalarini og`zaki va yozma shaklda hech qanday to`siqlarsiz bayon qilishga imkoniyat yaratadigan metod. Bu texnologiya ularga ta`lim bilan birga jamoa bilan ishlash mahorati, xushfe`llil, kirishuvchanlik, o`zgalarning fikrini hurmat qilis, ishga ijodiy yondashish va yana bir qator tarbiyaviy jihatlari ham mavjud.

Kommunikativ metod- bu o`z nomi bilan ko`rinib turibdiki, kommunikatsiya ya`ni muloqot ma`nosini anglatadi. Shuni ham ta`kidlab o`tish joizki, xorijiy til muloqot, gaplashish orqali o`rganiladi. Kommunikativ metod xuddi shu prinsipga asoslanib tuzib chiqilgan metod hisoblanadi. Ushbu metod tillarni o`rgatishda til o`rganishning ham vosita, ham yakuniy maqsadli sifatida ta`kidlaydigan yondashuv. Bir qator tanqidlarga qaramay bu metod Yevropada hali hamon mashhur bo`lib qolmoqda. Bu metodning mazmuniga to`xtaladigan bo`lsak, ushbu metod qo`llanilish jarayonida o`quvchi faqat muloqot va tinglash orqali xorijiy tilni o`rganadi. Muloqot jarayonida ko`plab iboralar yodlay oladilar va yodlagan iboralarini qo`llay olish imkoniyatini beradi. Odatda, bunday metodlar xotirani faol bo`lishiga, tez fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hamda mantiqiy fikrlash jarayoniga yo`naltirilgan va shunga undaydigan metod turlaridan biri hisoblanadi.

Audio-lingual metod- xorijiy tillarni o`rgatishda va o`rganishda samarali foyda beradigan metod turi hisoblanadi. Kommunikativ metodda o`quvchilar muloqot orqali, ya`ni gaplashib o`rganishsa, bu metodda esa tinglash orqali o`rganishadi. Audio-lingual metod Amerika Qo`shma Shtatlari armiyasi tomonidan Ikkinchi Jahon urushi paytida ishlatilgan. Ushbu dastur hujjatlashtirilgan muvaffaqiyatga ega hisoblanadi. Ushbu metod o`quvchining tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, so`zlarning talaffuz qilinishini va qo`llanilishini o`rgatadigan metod turi hisoblanadi. Avvallambor, o`quvchilarga biror nimani o`rgatishdan oldin ularga o`sha atmosferani yaratish kerak. Shundagina bola atrof-muhitni o`rganayotgan, qabul qilayotgan ma`lumotlari bilan uyg`unlashtiradi va undagi xorijiy tilni o`rganishga bo`lgan ishtiyoq yanada ortadi. O`qituvchi o`quvchilarga dars berish jarayonida har bir o`quvchi bilan ishlash qobiliyatiga ham ega bo`lishi kerak albatta. Chunki bir sinfda har xil darajadagi o`quvchilar bo`lishi mumkin. Shu sababdan darsda qo`llaniladigan metodlar barcha o`quvchini jalb qila olishi kerak.

Hozirgi kunda xorijiy tilga bo`lgan talab ortib bormoqda. Shu sababdan ham yurtboshimiz maktab bitiruvchilari eng kamida bitta xorijiy tilni o`zlashtirgan bo`lishlari va shu tildan sertifikatlariga ega bo`lishliklari haqida ham alohida ta`kidlab o`tgan. Bundan

ko`zlangan maqsad shuki, kelajakda yetuk kadrlar tayyorlash va yurtimizni yanada rivojlantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mamadiyorova M.M. (2024). Xorijiy Tillarni O`qitishda Mustaqil Ta`limning Kommunikativ-Pedagogik Tamoyillari. *Miasto Przyszłości*, 53, 95–98. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4760v>
2. Tugalova Malika Erkinboy qizi. Bolalarda xorijiy tillarni o`rganishda oilaning o`rni. 2023 - intereuroconf.com
3. Raxmatova Dilnavoz Abdimuradovna. (2023). Xorijiy tillarni o`qitishning zamonaviy metodlari (Nemis tili). *Pedagogs*, 46(1), 156–158. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/164>
4. Sabirjonova, D. (2023). Ingliz tilini o`qitishda zamonaviy pedagog texnologiyalari. *Golden Brain*, 1(1), 281–286. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1199>